


CH.I. MAXMUDOVA

TOPONIMIKA

O'QUV QO'LLANMA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAXMUDOVA CHAROS IKROMOVNA

TOPONIMIKA

O'quv qo'llanma

«Ilm nurli kitob»
Toshkent – 2024

UO'K 911.5/9
KBK 26.89(5Y36)
M-94

Maxmudova Ch.I.

Toponimika [Matn]: o'quv qo'llanma. Ch.I.Maxmudova. –T.: 2024. – 228 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada toponimika fanining nazariy masalalari, toponimlarning hududiylik xususiyatlari, toponimlarning tasniflanishiga hamda toponimlarning amaliy masalalariga doir ma'lumotlar berilgan.

O'quv qo'llanma 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabalari va tabiiy fanlarga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

F.T.Rajabov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti.

Taqrizchilar:

A.Nizomov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Geografiya o'qitish metodikasi" kafedrası professori v/b. g-m.f.n.

O.U.Abdimurotov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Geografiya" kafedrası dotsenti, PhD.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrda 485-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9910-9026-3-5

SO'Z BOSHI

Geografiya tabiiy fanlar ichida o'zining keng qamrovliligi, qiziqarliligi va ommabopligi bilan ajralib turadi. Bilim sohasi sifatida uzoq rivojlanish tarixiga ega bo'lgan bu fanni o'rganishga bo'lgan qiziqish, uning jamiyatdagi vazifasi ko'lamiga mos ravishda ortib bormoqda. O'z navbatida geografiya ta'limi joy nomlari bilan juda bog'langan. Joy nomlarining olami juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Inson paydo bo'lganidan buyon behisob va murakkab joy nomlar dunyosida yashaydi. Yer yuzida millionlab geografik nomlar ya'ni toponimlar mavjud. Umuman olganda, toponimika birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta'sirida vujudga kelgan. Chunki, uning o'rganish obyekti bo'lgan toponimlar geografik muhitning mahsuli sifatida geografik obyektlarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Har qanday geografik nom – bu dunyoni anglash mahsuli, unda muayyan bir hududdagi kishilarning kundalik hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatları o'z ifodasini topgan. Binobarin, ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan nomlar insoniyatni geografik muhitdagi obyektiv hodisa-voqealarni qanchalik anglab olish jarayonini o'zida aks etadi. Bu jarayon albatta, kishilarning ijtimoiy hayoti, milliy va ma'naviy qadriyatlari, mahalliy aholining etnik tarkibi, migratsiyasi, til tarixi hamda ularni o'rab turgan tabiiy-geografik muhit bilan chambarchas bog'liq. Joy nomlari, ularning ma'nosi, kelib chiqishini bilmasdan turib, shu joyning geografiyasini to'liq o'rganib bo'lmaydi. Xususan, atlas va geografik kartalarni nomlarsiz tasavvur qilish qiyin. Yer yuzidagi har bir geografik obyekt, dengiz, daryo, cho'l, tog'-u cho'qqi, shahar, qishloq, daha, mahalla, ko'cha kabi obyektlar o'z nomiga ega. Hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan ko'plab voqea-hodisalarni geografik nomlar orqali anglab olish mumkin. Kurai zaminda har xil davr va har xil tilga mansub millionlab geografik nomlarning uyg'unligini ko'rish mumkin. Mutaxassislarining

ta'kidlashicha, nomning ma'nosi obyektga nom berilayotgan vaqtda muhim, keyinchalik u nazardan bir oz chetda qoladi. Shu sababdan, ko'pincha bizga yaxshi tanish bo'lgan geografik nomlarni ham qanday ma'noga ega ekanligini bilmaymiz, faqat zarurat paydo bo'lganda u haqida o'ylash kerak bo'ladi. Geografik nomlarga shunday o'rganib ketganmizki, hatto, ularning mavjudligini ham unutib qo'yamiz.

Har bir bo'lajak geografiya o'qituvchisi darsni yuqori saviyada olib borishi uchun joy nomlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanishi zarur. Har bir fanni uning terminlari (atamalari) haqida bilimga ega bo'lmasdan turib, yaxshi egallash mumkin emas. Zero, inson uning bevosita atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga munosabat bildirmasdan qolmaydi. Shu sababdan, kishilar nazariga tushgan dunyodagi hamma narsani nomi bor, demak inson nom bermasdan yashay olmaydi. Odamlar bir geografik obyekttni, ikkinchisidan farq qilish uchun turli xil nomlarni o'ylab chiqargan. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotida sodir bo'lgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan.

Shu boisdan insoniyat shakllanibdik, ularni ayrim-ayrim nomlar bilan ataydi. Natijada jamiyat tarixida millionlab nomlar paydo bo'ldi va tabiiyki ularning o'ziga xos ma'no mazmunlari shakllandi. Aynan o'sha ma'no-mazmun bir qancha fanlarni o'rganishda o'ziga xos "kalit" sifatida ishtirok eta boshladi. Buni chuqur anglagan tadqiqotchilar joy nomlarini lingvistik, ya'ni etimologik jihatdan tahlil qilar ekan, toponim mazmunan joylashgan nuqtasining tabiiy-geografik sharoitiga naqadar mos tushish-tushmasligiga e'tibor qaratadilar. Chunki joy nomlari o'sha hududning ko'pchilik xususiyatlarini aniq ifodalab turadi.

Ushbu o'quv qo'llanmada toponimika fanining nazariy masalalari, rivojlanish tarixi, toponimlarning hududiylik xususiyatlari, ularning amaliy masalalari kabi mavzularga oid asosiy tushunchalarning mazmun mohiyati ochib berilgan hamda ularning ilmiy-nazariy asoslari qamrab olingan.

I BOB. TOPONIMIKA FANINING NAZARIY MASALALARI

1.1. TOPONIMIKA VA UNING O'ZGA FANLAR BILAN ALOQADORLIGI

Reja:

1. Toponimika fani haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.
2. Fanlar tizimida toponimikaning o'rni va ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: *Toponimika, toponimiya, toponim, toponimist, geografik nom, joy nomi, appelyativ, atoqli ot, onomastika, integral fan, ilmiy yo'nalish, "chegaraviy" fan, toponimning adreslik funksiyasi, formantlar, ilmiy toponimika.*

1.1 Toponimika fani haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari

Geografiya va geografiya ta'limini joy nomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Joy nomlari esa geografiyaning tilidir. Mashhur geograf olim E.M.Murzayev ta'kidlashicha, jamiyat hayotini geografik nomlarsiz tasavvur etish mumkin emas, ular hamma yerda uchraydi va bizni fikrimizga yoshlikdan hamroh bo'ladi. Yer sharida hamma narsa o'z adresiga ega, bu insoniyat tug'ilgan joyida boshlanadi, sababi inson yashaydigan hamma qishloq va shahar, mamlakatning o'z nomi bor. Bu nomlar fanda toponimlar deyiladi. Toponim nima? Demak joy nomlari – geografik nomlar yoki toponimlar deb ataladi, ularni o'rganadigan fan toponimika deb yuritiladi. Bu fanni o'rganadigan mutaxassislar esa toponimistlar deb ataladi. Toponimika yunoncha so'z bo'lib, "topos" – joy va "onima" yoki "onoma" – nom, ism tushunchalaridan tarkib topgandir. Dunyoda hamma narsaning nomi bor. "Tog" deganda balandmi pastmi, kattami-kichikmi umuman tog' tushuniladi. Ko'l ham

shunday umumiy atama, turdosh ot. Bunday soʻzlarni xohlagan tilga tarjima qilish mumkin. Atoqli ot esa qandaydir bir narsani, predmetni, obyektni bildiradi va odatda tarjima qilinmasdan hamma tillarda deyarli bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, Afrika, Oʻzbekiston, Nil, Tyanshan kabi. Lekin har bir hududning oʻz nomi boʻlgani uchun tasavvurimizda shu joy namoyon boʻladi. Samarqand deganda, respublikamizdagi Zarafshon daryosi sohilida joylashgan goʻzal, tarixiy shahar tushuniladi. Buxoro deyish bilan Oʻzbekistonning koʻhna shahri, shu nomli viloyat markazi koʻz oʻngimizda namoyon boʻladi. Shu sababdan kishilar nazariga tushgan dunyodagi hamma narsaning va har bir obyektning oʻz nomi bor, demak inson nom bermasdan yashay olmaydi.

Oʻzbekiston Mustaqillikka erishganidan keyin uning hududidagi geografik nomlarning koʻpchiligi oʻzgardi va oʻzgarmoqda. Oʻzbekistondagi geografik obyektlar Rusiya imperiyasi bosib olganidan keyin sobiq Sovet davrida qoʻyilgan nomlar qayta koʻrib chiqilib, ularga oʻzlarining qadimiy tarixiy nomlari qaytarilmoqda. Mustaqillik bilan bogʻliq yangi nomlar paydo boʻlmoqda. 1995 yil Oʻzbekiston Respublikasi Davlat tili haqidagi qonunga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qabul qildi. Davlat tili haqidagi qonun (yangi tahrirda) tasdiqlandi. Uning 22-moddasida shunday deyilgan. “Respublikaning maʼmuriy-hududiy birliklari, maydonlari koʻchalari va geografik obyektlari nomlari Davlat tilida aks ettiriladi”. “Oʻzbekiston Respublikasi maʼmuriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini oʻzgartirish masalalarining hal etish tartibi toʻgʻrisida” qonunida taʼkidlanishicha ushbu qonun, maʼmuriy-hududiy birliklar, aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlariga, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tabiiy geografik, geologik va boshqa obyektlarga nom berish va ularning nomini oʻzgartirish tartibini belgilaydi. Qonunning VI-VII-VIII-IX qismlarida va ularning tarkibiga kirgan 15 ta moddasida maʼmuriy hududiy birliklar, tabiiy-geografik obyektlar,

korxonalar, muassasalarni nomlash, ularning nomini oʻzgartirish asoslari va bu ishning tartibi haqida gap boradi.

1996-yil 31-mayda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Oʻzbekiston Respublikasidagi maʼmuriy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarni tartibga solish toʻgʻrisida” qaror qabul qildi. Qarorda joylarda toponimik obyektlarning eski tuzumga xizmat qiladigan xalqimizning tarixi, milliy anʼanalariga bogʻliq boʻlmagan nomlarning saqlanib turganligi qoralanadi va boshqa nomlar almashtirish lozimligi, bu ishni boshlash va tugallashni aniq muddati belgilandi.

Oʻzbekistonda istiqlol yillarida milliy toponimiksiyosatni amalga oshirish boʻyicha barcha huquqiy asoslar yaratildi. 2011 yili “Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni (12.10.2011y. OʻRQ №303) qabul qilindi. Toʻrt bob va yigirma toʻrt moddadan iborat. Mazkur qonunning asosiy maqsadi:

- geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlashdagi munosabatlarni tartibga solish;
- mavjud nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish;
- nom yozilishining rasmiy va umumiy isteʼmol uchun yagona shaklini aniqlash;
- davlat reyestrini yuritish;
- ekspertizadan oʻtkazish;
- milliy standartlashtirish;
- nomlardan foydalanish, saqlash hamda muhofaza qilishdan iborat.

Geograflar toponimikani oʻz fanlarining boʻlinmas tarmogʻi sifatida biladilar. Shuning uchun toponimika geografiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Toponimlar uzoq yashaydi. Ularda har xil tarixiy shaxslarning nomlari hamda tarixiy voqealiklar, oʻlkaning tabiiy sharoiti aks etgan boʻladi. Chunki toponimik atamalarning geografik tarqalishi, ushbu fanni tadqiq etishda oʻziga xos uslub tarzida ishtirok etadi. Zero, joy nomlari koʻp holatlarda oʻrganilayotgan hududning geografik sharoitidan xabar berib turadi. Shuning uchun toponimika fanining